

ILMIY-OMMABOP MATNLAR TARJIMASIDA TRANSFORMATSIYALAR (INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMALAR MISOLIDA)

Muzaffar Turamirzayevich Tadjibayev

abdugaffor16@gmail.com

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali

Annotatsiya: Mazkur maqolada ilmiy-ommabop matnlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning jamiyat rivojida tutgan o'rni, transformatsiya tarjima usullari, ilmiy-ommabop matnlar tarjimasida transformatsiyalarni qo'llanilishi haqida so'z yuritilgan. Ingliz tilidan o'zbek tiliga o'girilgan ilmiy-ommabop matnlarni o'g'irishda qo'llanilgan transformatsiya usullariga namunalar keltirilgan va tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: ilmiy-ommabop matn, hissiy va kognitiv ma'lumot, ingliz tili, tarjima, leksik transformatsiya, grammatik transformatsiya, leksik-grammatik transformatsiya, konkretlashtirish, generalizatsiya, transkripsiya, transliteratsiya, lug'aviy ma'no

O'zbekistonda so'nggi yillarda olib borilayotgan xorijiy tillarni o'rganish va o'qitish borasidagi islohotlar chet tilidagi matnlar, xususan, ilmiy-ommabop matnlarning tub mohiyatini anglab yetish, sohalar rivojida lingvistik bilimlarning o'ziga xos o'rnini belgilab berishda ko'plab imkoniyatlar yaratdi. Bu o'rinda ularning intellektual va ilmiy salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi jahonda mashhur bo'lgan kitoblarni o'zbek tiliga tarjima qilish hamda shu orqali ularni zamonaviy ilm-fanning so'nggi yutuqlari bilan tanishtirib borish tizimini yo'lga qo'yish maqsadida yurtboshimiz tomonidan ““Yoshlar uchun ming kitob” loyihasini amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilindi.¹

Bu o'rinda ilmiy-ommabop adabiyotlarning hissasi kattadir. Ilmiy-ommabop matn sof ilmiy matnga qaraganda kamroq axborot zichligiga ega bo'ladi va shu bilan bir paytning o'zida sof ilmiy matnga nisbatan kommunikativ vazifaning ikkinchi qismini - o'quvchini o'ziga jalb qiladigan, qiziqishini ta'minlaydigan maxsus vositalar: ritorik savollar, emotsional-baholovchi leksika, uslub jihatidan mos kelmaydigan boshqa matnlardan iqtiboslar, so'zlashuv va hatto xalq og'zaki lug'ati, frazeologizmlar, qanotli so'zlar, ma'no ko'chish turlari va boshqa ko'plab stilistik figuralar ko'plab qo'llaniladi. Ushbu maqolamizda ilmiy-ommabop matnning pragmatik ta'sirini tarjimada qayta yaratish uchun qo'llaniladigan transformatsiya usullari haqida so'z yuritamiz.

Taniqli tarjimon, tarjimashunos olim Ibrohim G'afurov transformatsiya haqida quyidagi fikrlarni keltiradi. “Tarjimada turli so'zma-so'z g'aliz birikmalarni qo'llashdan qochish, uning o'rniga adabiy, hamma tushunadigan, yorqin so'zlarni tarjima qilish uchun leksik transformatsiyalardan foydalaniladi. Leksik transformatsiyalar tarjima nazariyasida so'zlarni kontekstda almashtirish deb ham yuritiladi.”² Tarjimashunos olim G'.Rahimov quyidagi transformatsiya turlarini keltiradi:

- “Transkripsiya va transliteratsiya;
- konkretlashtirish (aniqlashtirish);
- generalizatsiya (umumlashtirish);
- modulyatsiya;

Grammatik transformatsiyalarning quyidagi turlari mavjud:

¹ <https://lex.uz/pdfs/6678312>

² И. Гафуров. О. Мўминов. Н. Қамбаров. Таржима назарияси. – Т. Тафаккур Бўстони. 2012. 109-б.

- sintaktik moslashuv;
- gapni bo‘laklarga bo‘lib tarjima qilish;
- sodda gaplarni qo‘shma gaplarga aylantirib tarjima qilish;
- so‘z shakllari, turkumlari va gap bo‘laklarini almashtirish.

Tarjima jarayonida quyidagi leksik-grammatik transformatsiyalar amalga oshiriladi:

- antonimik tarjima;
- tasviriy tarjima;
- kompensatsiya.”¹

Asliyat va tarjima tillarining fonetik tizimlaridagi tafovutlar ko‘proq transkripsiya usulidan foydalanishga olib keladi. Ilmiy-ommabop matnlarda ko‘p uchrovchi terminlarning aksari transkripsiya usulida o‘zbek tiliga o‘giriladi. Tadqiqot materialimizdan biri bo‘lgan ilmiy-ommabop uslubga mansub “Mamlakatlar tanazzuli sabablari”² kitobida amalga oshirgan tahlillarimiz natijasida 40 ta termindan 15tasi transkripsiya transformatsiya usuli bilan tarjima qilingani ma’lum bo‘ldi. Demak, ilmiy-ommabop matnlar tarjimasida leksik transformatsiya usullari orasida transkripsiya usuli dominantdir.

Ilmiy-ommabop matndan olingan ushbu misolga e’tibor qarataylik: Asliyatda: “*You think you are quitting something? But you are not quitting anything because do nothing for you.*”³

O‘zbekchada: “*O‘zingizni biron narsadan voz kechayapman deb hisoblaysiz, aslida esa voz kechadigan narsaning o‘zi yo‘q, chunki tamaki sizga hech narsa bermaydi.*”⁴

Ushbu ilmiy-ommabop matndan olingan misoldagi *quit* (tashlamoq, to‘xtatmoq, bas qilmoq) so‘zi *voz kechmoq* shaklida, *but you are not quitting anything* jumlasida esa *aslida voz kechadigan narsaning o‘zi yo‘q* shaklida modulyatsiya usulida sabab-oqibatni ifodalovchi ma’no orqali kuchaytirib tarjima qilingan. Ilmiy-ommabop matnga oid navbatdagi misolga murojaat qilaylik: *At the end of the term, he was surprised to find that all the best photos were produced by the quantity group. During the semester, these students were busy taking photos, experimenting with composition and lighting, testing out various methods in the darkroom, and learning from their mistakes. In the process of creating hundreds of photos, they honed their skills. Meanwhile, the quality group sat around speculating about perfection. In the end, they had little to show for their efforts other than unverified theories and one mediocre photo.*⁵

O‘zbekchada: *Semestr oxirida eng yaxshi fotolar “son” guruhidagi talabalar tomonidan suratga olinganiga guvoh bo‘lgan professor juda hayron qoldi. Semestr davomida bu talabalar suratga olish bilan band bo‘ldi, turlicha kompozitsiya va ekspozitsiyalarni sinab ko‘rdi, qorong‘i xonada tajribalar o‘tkazdi va xatolaridan xulosalar chiqardi. Yuzlab suratlar yaratish davomida ular ko‘nikmalarini kuchaytirdi. “Sifat” guruhidagi talabalar esa mukammallik haqida bosh qotirib vaqt o‘tkazdi. Oxir-oqibatda, shuncha sa’y-harakatlardan keyin ular isbotlanmagan g‘oyalarni, bittadan o‘rtacha sifatli surat taqdim eta oldi xolos.*⁶

¹ F. Раҳимов. Таржима назарияси ва амалиёти: дарслик-мажмуа. – Т. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2016 129-133-б.

² Acemoglu D., Robinson J. Why nations fail: the origins of power, prosperity, and poverty. — 1st ed. Crown Publishers, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Random House, Inc., New York. 2012. P. 229-234., Ажемўғли Д. Робинсон Ж. Мамлакатлар таназзули сабаблари: кудрат, фаровонлик ва камбағаллик манбалари. Nihol nashriyoti. – Т. 2021. 304-313-б.

³ James Clear. Atomic habits. AVERY an imprint of Penguin random house LLC. New York. 2018. P. 105.

⁴ Жеймс Клир. Атом одатлар. – Т. NIHOL. 2022. 145-б.

⁵ James Clear. Atomic habits. AVERY an imprint of Penguin random house LLC. New York. 2018. P.114.

⁶ Жеймс Клир. Атом одатлар. – Т. NIHOL. 2022. 158-159 б.

Ushbu misolda tarjimon leksik transformatsiyaning deyarli hamma usullaridan foydalanganiga guvoh bo'lamiz. Masalan, “*all the best photos were produced by the quantity group*” jumlasidagi “produce” so'zi asosan “ishlab chiqarmoq, yasamoq” ma'nolarida ishlatiladi. Bu o'rinda tarjimon so'zni kontekstga moslab “suratga olish” deb konkretlashtirish leksik transformatsiya tarjima usulini ishlatganini va baholovchi ma'noni qayta yaratganini ko'ramiz. Yana bir misolga e'tibor qaratadigan bo'lsak, asliyatdagi “*photo*” leksik birligi transkripsiya usulini qo'llagan holda kontekstga mos ravishda ba'zi o'rinlarda “foto”, ba'zi o'rinlarda tarjima tilidagi muqobili “surat” ko'rinishida tarjima qilinganini kuzatamiz. Yana bir “*In the process of creating hundreds of photos*” jumlasini umumlashtirish (generalizatsiya) usuli bilan “yuzlab suratlar yaratish davomida” ko'rinishida tarjima qilingan va baholovchi leksika tarjimada aks etgan. Navbatdagi misolga e'tibor beraylik: “*Andrew Kubitz, head of scheduling for ABC, described the idea behind the campaign: “we see Thursday night as a viewership opportunity, with either couples or women by themselves who want to sit down and escape and have fun and drink their red wine and have some popcorn.” The brilliance of this strategy is that ABC associating the thing they needed viewers to do (relax, drink wine, and eat popcorn).*”¹

O'zbekchada: “*AVSning ko'rsatuvlarini rejalashtirishga javobgar shaxs Endryu Kubis ushbu kompaniya asosidagi g'oya haqida shunday deydi: “biz payshanba oqshomini tomoshabinlar uchun imkoniyat deb hisoblaymiz. Ayollarning o'zlari yoki juftlari bilan kundalik hayotdan chalg'ish, dam olish, vino ichish va bodroq yeyish uchun imkoniyat”. Ushbu strategiyaning dohiyonaligi shundaki, AVS tomoshabinlardan talab qilinayotgan harakatni (shouni tomosha qilish) ular allaqachon istayotgan harakatlar (dam olish, vino ichish va bodroq yeyish) bilan bog'ladi.*”²

Mazkur misolda ham leksik transformatsiyaning bir necha turlarini kuzatishimiz mumkin. “*Andrew Kubitz*” va “*ABC*” atoli otlari transkripsiya usulida “*Edryu Kubis*” va “*AVS*” ko'rinishida tarjima qilingan. E'tiborli tarafi shundaki, tarjimon ko'plab atoli otlarni hech o'zgarishsiz asliyat shaklida qoldirgan. “*Andrew Kubitz, head of scheduling for ABC, described the idea behind the campaign*” jumlasini modulyatsiya, konkretizatsiya va kompensatsiya usullarini qo'llagan holda “*AVSning ko'rsatuvlarini rejalashtirishga javobgar shaxs Endryu Kubis ushbu kompaniya asosidagi g'oya haqida shunday deydi*” shaklida tarjima qilingan. Ya'ni “*head of scheduling for ABC*” jumlasini so'zma-so'z tarjimada “*AVS ko'rsatuvlar jadvali rahbari*” bo'lsa, tarjimon uni “*AVSning ko'rsatuvlarini rejalashtirishga javobgar shaxs*” shaklida tarjima qilgan. “*described the idea behind the campaign*” jumlasini so'zma-so'z “*kampaniya ortidagi g'oya*” tarjima bo'ladi. Tarjimon uni “*ushbu kompaniya asosidagi g'oya haqida shunday deydi*” shaklida tarjima qilgan. E'tiborli jihat shundaki, gap murakkab qo'shma gap ikki sodda gapga bo'lib tarjima qilingan. Ikkinchi gapdagi “*sit down and escape and have fun and drink their red wine and have some popcorn*” jumlasini “*kundalik hayotdan chalg'ish, dam olish, vino ichish va bodroq yeyish uchun imkoniyat*” ko'rinishida tarjima qilingan. Bu yerda “*sit down*” so'zi tushirib qoldirilgan. “*escape*” so'zi “*kundalik hayotdan chalg'ish*” deya tarjima qilingan va jumladagi emotsional baholovchi ma'no tarjimada aks etmay qolgan. Birgina “*brilliance*” so'zi “*dohiyona*” tarzida muvaffaqiyatli tarjima qilingan va so'zning emotsional baholovchi kuchi tarjimada aks etgan. Bizningcha, ushbu abzas quyidagicha tarjima qilinsa undagi emotsional baholovchi ma'noga ega leksik birliklarning pragmatik kuchi tarjimada aks etgan bo'lar edi:

Yuqoridagi keltirilgan ma'lumot va misollardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, asarlar tarjimasiga qo'l urayotgan yoshlarimiz tilshunoslik va uning tarkibiga kiruvchi adabiyotshunoslikning, tarjimaning fundamental asoslari, nazariyasi, past-balandliklari, usul va

¹ James Clear. Atomic habits. AVERY an imprint of Penguin random house LLC. New York. 2018. P.92.

² Жеймс Клир. Атом одатлар. – Т. НИХОЛ. 2022. 123-б.

metodlaridan boxabar bo'lishlari lozim. Har bir ishda bo'lgani kabi jarayonga ilmiy yondashuv haqiqiy qiymatga ega bo'lgan natijalarni taqdim etadi va tarjimonlar ishini birmuncha osonlashishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://lex.uz/pdfs/6678312>
2. Большой толковый словарь [Электронный ресурс] – <http://gramota.ru/slovari/info/bts/>
3. Якобсон, Р. Лингвистика и поэтика / Р. Якобсон // Структурализм: “за” и “против” (сборник статей) / Под ред. Е. Я. Басина и М. Я. Полякова. – М.: Прогресс, 1975. – С. 193- 231
4. Арнольд, И. В. Семантика. Стилистика. Интертекстуальность /И. В. Арнольд : Сборник статей / Науч. редактор П.Е.Бухаркин. – СПб.: Изд-во С.-Петербур. ун-та, 1999. – 444 с.
5. Лингвистический энциклопедический словарь [Электронный ресурс] – Режим доступа: <http://tapemark.narod.ru/les/index.html>.
6. И. Гафуров. О. Мўминов. Н. Қамбаров. Таржима назарияси. Тошкент. Тафаккур Бўстони. 2012. 113-б.
7. Ғ. Раҳимов. Таржима назарияси ва амалиёти: дарслик-мажмуа. Тошкент. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2016 129-133-б.
8. James Clear. Atomic habits. AVERY an imprint of Penguin random house LLC. New York. 2018. P.114.
9. Жеймс Клир. Атом одатлар. Тошкент. NIHOL. 2022. 158-159 б.
10. Acemoglu D., Robinson J. Why nations fail: the origins of power, prosperity, and poverty. —1st ed. Crown Publishers, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Random House, Inc., New York. 2012. P. 229-234., Ажемўғли Д. Робинсон Ж. Мамлакатлар таназзули сабаблари: қудрат, фаровонлик ва камбағаллик манбалари. Nihol nashriyoti. – Т. 2021.
11. Tadjibayev, M. (2023). ILMIY-OMMABOP MATNLAR TARJIMASINING O'ZIGA XOSLIKLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(23), 341-345.
12. TADJIBAYEV, M. (2024). ILMIY-OMMABOP MATNDA MUQIM FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TARJIMASINING O'ZIGA XOSLIKLARI. «ACTA NUUZ», 1(1.1), 288-291.
13. Tadjibayev, M. (2024). Pragmatic-functional importance of translation of titles and headlines in popular science texts. Pubmedia Social Sciences and Humanities, 2(1), 8. <https://doi.org/10.47134/pssh.v2i1.279>
14. Tadjibayev, M. (2024). Pragmatic-functional importance of translation of titles and headlines in popular science texts. Konferensiyalar | Conferences, 1(2), 1166–1167. <https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/view/1266> (uzresearchers.com)
15. ДОСБАЕВА, Н. Т., & ДОСБАЕВА, Н. Т. (2020). ТАРЖИМАЛАР ТАҲЛИЛИДА ҚОДИРИЙ “АНДИША” ЛАРИ.
16. Dosbaeva, N. (2019). ABOUT HARMONY OF LINGUISTIC AND CULTURAL APPROACHES IN TRANSLATION. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(1).
17. Dosbaeva, N. T. (2020). Culture-bound words in linguocultural analysis of literary translation (By the example of the translation versions of the novel "Bygone Days" by Abdullah Qadiri). International Journal of Research in Social Sciences, 10(8), 429–439. <https://doi.org/10.5958/2249-7137.2020.00650.3>